



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SAN'AT, TIL VA MADANIYAT  
MASALALARINI ILMIY  
O'RGANISHDA FAN VA  
INNOVASIYALAR UYG'UNLIGI**

**MAVZUSIDAGI ILMIY AMALIY ANJUMAN**

Materiallar to'plami

4-may

**Buxoro – 2023**

*San'at, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqola va tezislar to'plami.*

**MAS'UL MUHARRIR:**

J.T. Yarashev - Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

**TAQRIZCHILAR:**

D.Yu. Ruziyev – p.f.n., prof.

N.Dj. Yadgarov – p.f.d. (DSc) prof.

**TO'PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:**

D.I. Mamurova- P.f.f.d. (PhD), dotsent Sh.I. Ibadullayeva- katta o'qituvchi

M.M. Badiyev- t.f.n., dotsent Sh.U. Sobirova- o'qituvchi

A.R. Shukurov- dotsent N.I. Ibatova- o'qituvchi

R.N. Raximov- v.v.b. dotsent Sh.I. Shamsiyev- o'qituvchi

S.N. Gulov- katta o'qituvchi Z.M. Alayeva- o'qituvchi

Respublika ilmiy va ilmiy-texnikaviy amaliy anjumanning ilmiy maqola, tezislar to'plamida san'at, til, madaniyat, musiqa ta'limi hamda tasviriy san'at va ularni o'qitishda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar qamrab olingan. San'at, til va madaniyat sohalarida xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar, ularni o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi hamda mamlakatimizda mazkur sohalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, metodik tavsiyalar borasidagi takliflarni o'z ichiga olgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

*Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarining mazmuni, statistik ma'lumotlar, bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.*

ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi. Garchand mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo'lsa-da, o'sha maktablarning o'ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlr madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko'rinadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. S. Abdurasulov, N.Tolipov. "Tasviriy san'at o' qitish metodikasi" Toshkent, "Aloqachi", 2007 yil.
2. S. Abdurasulov, B.Boymetov. Tasviriy san'at. Toshkent, 2006 yil.
- 3.Rajabov R.K. "Tasviriy san'at o' qitish metodikasi". Toshkent. Musiqa 2008.
4. Xasanov.R. Maktabda tasviriy san'at mashgulotlarini takomillashtirish yo' llari -Toshkent: O' qituvchi, 1986.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA QO'SHIQ O'RGATISHNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

**Karimov Olimxo'ja Islomovich**

*Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va  
madaniyat kafedrasi dotsenti*

**Qutliyeva Gulmira Durdimurotovna**

*BuxDPI 2-bosqich magistranti*

*Annotatsiya: maqolada bolalarni musiqa orqali tarbiyalash ularda qo'shiq aytish ko'nikmalarini rivojlantirish va bolalarni tarbiyasida vokal darslarining o'rni va ahamiyati haqida fikrlar keltirib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: pedagog, estetik, vokal, piano, san'at, rezonator, texnologiya, emotsiya.*

Musiqa – san'at turlaridan biridir. San'atning turlari ko'p. Musiqa ifodaviy san'at turiga kiradi. Tasviriy san'at turlaridan biri – rassomlik bilan musiqani taqqoslab ko'rsak, ularning biri ranglar vositasida biror bir hayotiy voqea, manzara yo birovning qiyofasini (portret) aks ettiradigan bo'lsa, ikkinchsi tovushlar (uzun – qisqa, baland, past) vositasida xuddi shunday narsalarni ifodalaydi. So'z san'ati ham ifodaviy san'at turiga kiradi. Ammo, so'z bilan ifodalashning imkoniyati bo'lmagan ichki ruhiy kechinmalarni musiqa orqali ifodalash mumkin.

Asosan, har xil tovushlar, asarning o'lchovi, usuli (ritmi), sur'ati (temp), tovushning forte (qattiq), piano (yumshoq), kreshendo (sekin-asta qattiqlanish yoki kuchlilanish) diminuendo (shuning teskarisi), puzalar (tinish belgilari) kabi belgilardir. Musiqa san'ati ham so'z san'atidek maxsus yozuvga ega. Hozirgi nota yozuvi Evropa musiqasiga mansub bo'lib, eng takomillashgan zamonaviy yozuvdir. Shu qatorda XIII asr musiqasi olimi Safiuddin Urmaviy va XIX asrda yashab ijod qilgan Komil Xorazmiylar yaratgan "Sharq" musiqa yozuvi ham mavjud bo'lgan.

### ***Bolalarda qo'shiq aytish malakalarini shakllantirib borish kerak***

**Qo'shiq aytishdagi holat** - Stulchalarda o'tirib, qomatni to'g'ri tutish lozim. Stulcha bolaning bo'yiga mos bo'lib, suyanadigan qismiga yengil tayanib turish mumkin bo'lsin. Yelka tekin tutilgan, qo'llar tizzaga qo'yilgan bo'lishi kerak.

**Vokal malakalari** - tovush hosil qilish, nafas olish va dikstiyaning o'zaro aloqadorligidan iboratdir. Nafas yengil va chuqur olinib, shovqinsiz, sekin chiqarilishi lozim. Ovoz tiniq, yengil va jarangdor bo'lishi zarur. So'zlarni esa aniq va burro talaffuz etish kerak. Bunda til va labni to'g'ri holatda tutib, og'izni erkin ochish va pastki jag'ni erkin harakatlantirish lozim.

**Xor malakalari** - sinfdagi bolalar xor bo'lib kuylaganda soz va ansamblning uzviy hamjihatligidan iboratdir. **Soz** qo'shiq aytganda ovozlarning musiqaga sozlangan sof intonastiyasi, **ansambl** esa barcha xonandalar ovozining jarangdorlik kuchi va xor tovushning balandligi jihatdan bir me'yorda uyg'unlashuvidir. Bolalarning ilk vokal-xor malakalari bog'chada shakllanib boradi. Buning uchun xorda va yakka qo'shiq aytishda intonastiya sofligiga intilish lozim. Garchi, xorda barcha bolalar sof intonastiyada kuylay olmasa-da, lekin metodik jihatdan izchil tashkil etilgan musiqa mashg'ulotlari umumiy intonastiya sofligini yaxshilashga yordam beradi.

**Tovush hosil qilish** – yyengil va erkin nafas olib nutq apparatini erkin ishlatish yo'li bilan tiniq va jarangdor ovoz hosil qilish demakdir. Bunda bog'cha yoshidagi bolalar ovozining hali zaifligi va tez toliqishini hisobga olish shart. Ularda xonandalik malakalari hali etarli darajada shakllanmaganligi sababi ko'proq nutq pastanofkasida kuylaydilar. Shuning uchun bolalar kuychn ovozda kuylashni yaxshi bilmaydilar. Ohangdor, cho'zib, kuychan ovoz bilan kuylash uzoq mashq jarayonida shakllanib boradi. Kuychan ovoz kuylash yuqori sinf bolalarida bir muncha yaxshi shakllanadi.

**Nafas olish** - qo'shiq asttishda to'g'ri nafas olishning ahamiyati katta. Nafas qancha yengil olinib, bir tekisda ishlatilsa, ovoz ham shuncha erkin va tiniq, jarangdor chiqadi ammo, nafas olish ustida bolalar bilan maxsus shug'ullanish tavsiya etilmaydi. Ular bilan ko'proq ertalabki gimnastika paytida shug'ullanish mumkin. Maktab yoshidagi bolalarning nafasi yengil yuzaki va qisqa bo'ladi. Shuning uchun ovozni kuychan, cho'zib kuylashda qiynaladilar va ko'pincha so'zni bo'lib, ular o'rtasida nafas oladilar. Maktab bolalarining "Qo'shiqchilik" nafasi asosan qo'shiq aytish jarayonida mustahkamlanadi. Buning uchun tarbiyachi bolalarning qo'shiq aytish paytidagi nafas olishlarini quyidagicha nazorat qilib borishi lozim: nafasni qo'shiq aytish oldidan va qo'shiq jumllarining oxirida hamda uning bo'laklari orasida olishga undash; so'zni kesib uning orasida

nafas olmaslikni tushuntirish; olingan nafasni jumlaning oxirigacha bir maromda etkazish, ashula aytganda me'yoridan ortiq nafas olmaslik; yelka ko'tarmasdan yengil, shovqinsiz, tiniq nafas olish va hokazolar.

Bolalarda qo'shiq aytish jarayonida nafasni rejali ishlatish va uni to'g'ri boshqarib borish malakalarini hosil etish lozim.

Dastlabki paytlarda qisqa jumlati qo'shiqlardan foydalanish yaxshi natija beradi. O'qituvchining o'zi nafasni me'yorida olib qo'shiq kuylashni vaqti-vaqtida ko'rsatib tursa bolalar nafas olib kuylash uslubini yanada tezroq o'zlashtirib boradilar. Bundan tashqari o'qituvchi o'zining ovozi bilan ham namuna bo'lmog'i lozim. Chunki, kichik yoshli bolalar ashula o'rganishda ko'proq kattalarga taqlid qiladilar. Ayniqsa, o'qituvchining qattiq gapirish va baqirib ashula aytishi bolalarga har jihatdan salbiy ta'sir etishini unutmazlik lozim.

**Diksiya** - qo'shiq aytish paytida diksiya, ya'ni talaffuz ustida ishlash katta ahamiyatga ega. So'zlarni aniq va burro talaffuz etish, birinchidan, qo'shiqning musiqiy - poetik uyg'unligini ta'min etsa, ikkinchidan, bolalar nutqini o'stirishda, ayniqsa nutqdagi ayrim nuqsonlarni bartaraf etishda katta yordam beradi. So'zdagi unli va undosh tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz etish diksiyaning aniqligidir.

K.S.Stanislavskiy aytganidek, unli tovushlar daryo, undosh tovushlar esa uning qirg'oqlaridir. Shuning uchun unli tovushlarni ochiq, cho'zib va erkin talaffuz etib, undosh tovushlarni burro qisqa va aniq talaffuz etishga erishish lozim. Shuning uchun ashula aytishdagi so'z talaffuzi nutq talaffuzidan yanada aniq va burroligi, ohangdor va jarangdorligi, ayniqsa so'zdagi urg'ularni aniq ifodalab talaffuz etilishi bilan farq qiladi. Bolalar ko'pincha ansambl hosil qilib kuylashda qiynaladilar. Bu qiyinchilik asosan so'zlarni hamma bir vaqtda, baravar talaffuz etolmaslikdan va tovush kuchining umumiylikiga erisholmasligidan kelib chiqadi.

Umuman, xor-vokal malakalarini shakllantirish o'qituvchidan katta diqqat e'tiborni, bolalar faoliyatini doimiy nazorat qilib turishni, ular bilan umumiy va individual tarzda ish olib borishni talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D.Soipova "Musiqqa o'qitish nazariyasi va metodikasi" O'quv qo'llanma. Toshkent. 2009-y 131- bet
2. Azizbek Haydarov "Vokal" O'quv qo'llanma. Qo'qon. 2019- yil 51- bet
3. D.Shostakovich. Znayte i lyubite muziku. -M., Presveshenie, 1973g.19str.

Amaliy bezak fanlarini o'qitishda kompyuter grafikasidan foydalanishning ahamiyati <i>Mamurova D.I., Bomurodova Madina</i> .....	329
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "musiqa madaniyati" darslarida ovozni yo'lga qo'yishning metodik xususiyatlari. (1-sinf misolida). <i>M. Tuyunov</i> .....	332
chizmachilik kursini tashkiliy samaradorligini oshirish. <i>Shukurov Avazjon Ro'ziboyevich</i> .....	338
Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tarbiyaning maqsadi. <i>Ruziyev D.Yu., Saidova D.E.</i> .....	341
Umumta'lim maktablari o'quvchilarida tasviriy san'at asarlarini badiiy idrok etishni shakllantirishga innovatsion yondashuv yo'llari. <i>Yodgorov N.J., Ibragimova N.N.</i> .....	343
Musiqa o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash. <i>Aminov F.M. Asadov Q.N.</i>	346
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini o'stirishda musiqiy didaktik o'yinlardan foydalanish usullari. <i>Eliboyeva Lola Suleymanovna</i> .....	349
Yangi o'zbekiston ma'rifatli jamiyatini yaratishda yoshlarning o'rni. <i>Alayeva Z.M., To'xtayeva M.B.</i> .....	354
O'qitishning zamonaviy metodlari. <i>Ko'kiyev Boburmirzo Baxodir o'g'li</i> .....	357
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni estetik tarbiyalashda xalq qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy pedagogik asoslari. <i>Nurullayev F.G., Egamov O.S.</i> .....	366
Musiqa darslarini fanlar aloqadorligida tashkil etish imkoniyatlari. <i>Qudratova E. Rasulova O'</i> .....	370
Rus xalqi musiqiy ta'limida o'quv texnologiyalari. <i>Raxmanova Istat Muminovna</i> .....	372
Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining shaxs sifatida kamol topishida darsdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati. <i>Shukurov A.R., Aslanova N.X.</i> .....	375
Boshlang'ich sinflarda qo'shiq o'rgatishning uslubiy xususiyatlari. <i>Karimov O.I., Qutliyeva G.D.</i> .....	377
Maktab o'quvchilarida tasviriy san'at asarlarining obrazli tafakkurini shakllantirish muammosiga o'zbek olimlar munosabati. <i>Mexrangiz Xasanova</i> .....	380
Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitilishi uslubiyotining tarixiy - taraqqiyoti. <i>Ibadullaeva Sh.I., Amonova R.J.</i> .....	382
Musiqiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirishda talabalarni kreativlikka tayyorlash. <i>Kambarova Maxfuza Botirovna</i> .....	385
Chizmalarda ko'rinishlarga oid detallarning chizmasini o'qish metodik tavsiyalar. <i>Malikov K.G., Haydarova I.B.</i> .....	388
O'quvchilarni qirqim bajarishga hamda chizmani o'qish usullariga o'rgatish metodikasi. <i>Ashrapova Parvinabonu</i> .....	391
Elementar musiqa nazariyasi fanini fizika fani orqali sintez tarzda o'tish. <i>Ruziyeva Xosiyat Rasulovna</i> .....	395
Musiqa darslarini matematik ta'limot orqali sintezlashtirish. <i>Ruziyeva Xosiyat Rasulovna</i> .....	398
Формообразования сложных форм волнистых оболочек с отверстиями. <i>Муродова М.Х., Каримова С.Х.</i> .....	400
Maktab o'quvchilarida tasviriy san'at asarlarini obrazli tafakkur qilinishining rivojlanish muammosi va uning xorijiy olimlar tomonidan o'rganilganlik holati. <i>Xasanova Mehrangiz</i> .....	405

**SAN'AT, TIL VA MADANIYAT  
MASALALARINI ILMIY  
O'RGANISHDA FAN VA  
INNOVASIYALAR UYG'UNLIGI**

**MAVZUSIDAGI ILMIY AMALIY ANJUMAN**

Materiallar to'plami